TARIX

**UDK: 902.6 (575.171)** **DOI: 10.56292/SJFSU/vol29_iss4/a45**

# XORAZM VILOYATIDA SUV XO‘JALIGI QURILISHI SOHASIDAGI AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR
(1971–1990 YILLARDAGI KO‘RSATKICHLAR MISOLIDA)

# ВЫПОЛНЕННЫЕ РАБОТЫ В СФЕРЕ СТРОИТЕЛЬСТВА ВОДНОГО ХОЗЯЙСТВА В ХОРЕЗМСКОЙ ОБЛАСТИ
(НА ПРИМЕРЕ ПОКАЗАТЕЛЕЙ 1971-1990 ГОДОВ)

# COMPLETED WORKS IN THE FIELD OF WATER MANAGEMENT CONSTRUCTION IN THE KHOREZM REGIONTHE
(ON THE EXAMPLE OF INDICATORS 1971-1990)

**Hudayqulova Nargiz Abdullayevna**[1]

[1]**Hudayqulova Nargiz Abdullayevna** – Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali Ijtimoiy fanlar kafedrasi, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dotsenti

***Annotatsiya***

*Maqolada Xorazmda 1970-90 yillar davomida amalga oshirilgan suv xo‘jaligi sohasidagi qurilish va rekonstruksiya ishlari, yangi qurilish tashkilotlarining ochilishi va bir qancha yangi xo‘jaliklarni tashkil etilishi tarixi ilmiy asosda yoritilib berilgan. Shuningdek, Xorazm viloyatida suv qurilishi sohasida amalga oshirilgan ulkan ishlar natijasida yangi o‘zlashtirilgan maydonlar va ularga sarflangan mablag‘lar hajmi oshgani aniq dalillar asosida ko‘rsatib berilgan. Maqolada sho‘rolar davri tarixchilariva irrigatorlari asarlari, ilmiy tadqiqot ishlari, shuningdek arxiv materiallari xronologik tarzda tahlil qilingan.*

***Аннотация***

*В статье на научной основе освещается история работ, проведенных в сфере строительства водного хозяйства, открытие новых строительных организаций и создание многих новых хозяйств в период 1970-90-х годов в Хорезме. А также, показано что, в результате проведенных работ в сфере водного строительства в Хорезмской области увеличение количества территорий и затраченных денежных средств на новых осваиваемых земель. В статье в хронологическом порядке анализируются архивные материалы, труды авторов, среди которых основное место занимают научно-исследовательские работы историков и ирригаторов советского периода.*

***Abstract***

*The article highlights on a scientific basis the history of works carried out in the field of water construction, the opening of new construction organizations and the creation of many new farms in the period of the 1970s-90s in Khorezm.Also, it is shown that, as a result of the work carried out in the field of water construction in the Khorezm region, an increase in the number of territories and money spent on new developed lands. The article analyzes in chronological order archival materials, the works of authors, among which the main place is occupied by research works of historians and irrigators of the Soviet period.*

***Kalit so‘zlar:*** *Xorazmsuvqurilish, Melioratsiya, suv xo‘jaligi, jamoa xo‘jaligi, trest, plita, lotok, parabola, temir–beton, konstruktsiya, suv, inshoot, qurilish–montaj*

***Ключевые слова:*** *Хорезмводстрой, мелиорация, водное хозяйство, коллективное хозяйство, трест, плита, лоток, парабола, железобетон, конструкция, вода, сооружение, строительно-монтажное.*

***Key words:*** *Khorezm water construction, Reclamation, water management, collective management, trust, slab, tray, parabola, reinforced concrete, construction, water, structure, construction-assembly.*

## KIRISH

Xorazm viloyatida markaziy komitet buyruqlari asosida (1970–yil 12-noyabrda qabul qilgan “1970–yilda yangi yerlarni o‘zlashtirish va sug‘oriladigan yerlarni kapital tekislash ishlarining borishi to‘g‘risida”gi qarori misolida) sug‘orish sohasida belgilangan topshiriqlarning bajarilishi o‘ziga xos tarzda amalga oshirilar edi. Xorazmning tabiiy sharoiti bunga asosiy sababchi omillardan biri edi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Xorazmda suv xo‘jaligi sohasidagi qurilish va rekonstruksiya ishlari borasida olib borilgan faoliyatni ilmiy o‘rgangan ko‘plagan mualliflarni adabiyotlariga tayanish mumkin. Bu adabiyotlar qatorida avvalo Ya.G‘.G‘ulomovning “Xorazmning sug‘orilish tarixi” [1] nomli kitobi o‘ziga xos ustuvor ahamiyatga ega. Shuningdek, XX asrning 60–yillarida A.M. Mamedov, N.X. Oblamuradov,

X. Ahmedov va boshqalar O‘zbekiston va uning hududlarida sug‘orish bilan bog‘liq muammolarni atroflicha o‘rganish maqsadida bir qancha ilmiy va fundamental asarlar yaratdilar[2].

1975–1980–yillarda yozilgan “O‘zbekiston irrigatsiyasi”[3] deb nomlangan to‘rt jildlik fundamental asarlarning yozilishi tadqiqotni ilmiy tahlil qilishda katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Kitobning 3–jildida Amudaryoning quyi oqimida joylashgan Xorazm viloyati va Qoraqalpog‘iston yerlarini sug‘orish tizimini to‘g‘ri tashkil etish masalalari va bu borada amalga oshirilgan ishlarga jiddiy e’tibor qaratilgan [3]. Bir guruh tadqiqotchilar tomonidan Farg‘ona vodiysi, Mirzacho‘l, Surxon–Sherobod, Jizzax, Qarshi cho‘llarini o‘zlashtirilishi va sug‘orma dehqonchilikni rivojlantirish tarixiga bag‘ishlangan qator ilmiy asarlar yaratdilar. Ular orasida A.Abdulhamidov, A.Satliqov, A.Abdunabiev, K.Eshchanov, T.Abduraxmanova, S.Tileuqulov, A. Razzokov, A.M. Mamedov, N.X. Oblamurodov, va boshqalarning dissertatsiyalarini ko‘rsatib o‘tish mumkin [4]. Bu ilmiy ishlarning aksariyatida sug‘orish tizimi holati, muammolari, o‘zlashtirish masalalari hukmron mafkura manfaatidan kelib chiqqan holda yoritilgan.

## NATIJALAR VA MUHOKAMA

1974–yilda “Xorazmsuvqurilish” tresti rahbari A.G.Avanesovning tashabusi bilan Urganch yig‘ma temir–beton zavodi qurilishi boshlandi. Zavod 1979-yil oxirida ishga tushirildi va suv qurilishi uchun nihoyatda zarur bo‘lgan plita, lotok, parabola va boshqa mahsulotlar chiqara boshladi. Zavod jamoasining dastlabki yutuqlaridan biri — 30 ming tomoshabinga mo‘ljallangan “Olimpiya” sport kompleksi qurilishi uchun zarur yig‘ma konstruktsiyalarni yetkazib berish bo‘ldi.

Keng ko‘lamda suv qurilishi ishlari olib borayotganligini hisobga olgan holda 1976-yilda viloyat ijroqo‘mi “Paxtakor” jamoa xo‘jaligidan 11 ga yer ajratib berdi. Ishlab chiqarishni Moddiy–texnologik ta‘minlash boshqarmasi bazasi nomini olgan ushbu qurilishga 3,5 mln so‘m mablag‘ sarflandi. 1978-yilda trestda yana uchta yangi qurilish tashkilotlari ochilib, ular asosan qum va barxan yerlarini o‘zlashtirib, yangi davlat xo‘jaliklari tashkil etishga kirishdi.

“Xorazmsuvqurilish” trestida aloqa vositalaridan keng foydalanishga e’tibor berildi. Barcha bo‘linmalar bilan “Granit” radiostantsiyasi orqali 35–40 kilometr masofada aloqa o‘rnatildi. Ammo, vaqt o‘tib bu yetarli bo‘lmay qoldi. Natijada 1977-yilda Markaziy dispetcherlik punkti “Volna–M” rusmli yangi aloqa vositalari bilan jihozlandi [5].

1984-yil 1-iyulda trest texnik ta‘minoti korxonasi ishlab chiqarishni texnologik mujassamlashtirish boshqarmasi nomini oldi. Bu davrda sobiq ittifoqdagi inqirozlar natijasida qurilish materiallarni keltirish, birinchi navbatda metall, yog‘och, asbob–uskunalar kamayganligi bois, yog‘ochsozlik ustaxonasi va temir–beton uzeli, lak bo‘yoqlarni ishlab chiqarish sexini kengaytirishga harakat qilindi. Trest jamoasi har yili 70–80 o‘rinda temir–beton ko‘priklari qurish, kanallarni betonlashtirish, lotoklar o‘rnatish ishlarii jadal olib bordi. “Xorazmsuvqurilish” trestiga “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan irrigator” A.G.Avanesov rahbarlik qilgan 1969–1983 yillarda 831 mln so‘mdan ortiqroq hajmdagi qurilish–montaj ishlari bajarildi, 27852 ga yangi yerlar o‘zlashtirildi, 31910 ga yerlar kapital tekislanib, 69 ming ga yerlarning meliorativ holati yaxshilandi [6]. Trest quruvchilari tumanlarda 616 km ariq va zovurlar, 730 km kollektor tarmoqlari, 103 suv inshootlari barpo etdilar va qayta ta‘mirladilar. Yer va suv qurilishi ishlaridan tashqari trest mutaxassislari Urganch shahrida 25 o‘rinlik stadion, “Olimpiya” va “Polet” mehmonxonalari, Cholish posyolkasida 200 o‘rinli pionerlar lageri, 408 ta temir–beton ko‘prik va 72423 kvadrat metr uy–joylarni foydalanishga topshirdilar [6].

Trest jamoasi qo‘lga kiritilgan yutuqlarni yanada mustahkamlashga harakat qildi. Buning uchun moddiy–texnika bazani kengaytirish, brigada pudrati asosida faol mehnat qilayotgan quruvchilar va mutaxassislarni rag‘batlantirib borish, ular o‘rtasida mehnat musobaqasi tashkil etish ishlariga e’tibor qaratildi. Bo‘limlar orasidagi bellashuvlarda bir necha bor Toshsoqa KMKsi jamoasi g‘olib chiqdi. 1979-yilda trest jamoasi sobiq ittifoq va O‘zbekiston Melioratsiya va suv xo‘jaligi ministrliklari tomonidan musobaqa g‘olibi deb topildi [7].

70–yillar oxirlarida Xorazm suv xo‘jaligi boshqarmalarini bitta binoga joylashtirish g‘oyasi ilgari surildi. Uni O‘zbekiston suv xo‘jaligi ministri S.Mamarasulov, viloyat suv xo‘jaligi boshqarmasi rahbarlari Q.Sapaev, O‘.Muhammadiev, Y.Ismoilov, A.G.Avanesov qo‘llab–quvvatladilar. Natijada Xorazm viloyat ijroko‘mi raisi R.Eshjonov ko‘rsatmasiga binoan bino qurilishi uchun yer maydoni ajratildi. Nisbatan qisqa muddatda barcha qulayliklarga ega bo‘lgan “Suvchilar uyi” qurilib, unga Xorazm viloyat suv xo‘jaligi boshqarmasi, Xorazm viloyat suv inshootlari qurilish tresti, Xorazm

viloyat suv inshootlarini loyihalash gruppasi, melioratsiya boshqarmasi, buyurtmachilar direktsiyasi jamoalari joylashtirildi. Bitta binoda ishlagan tajribali mutaxassislarning tez–tez uchrashib, fikr almashlab, maslahatlashib turishlari, voha istiqboli uchun hamkorlikda ish olib borishi uchun yangi imkoniyatlarni yaratdi.

Xorazm viloyatidagi qurilish tashkilotlari bir necha bor og‘ir sinovlardan o‘tdi. 1979-yil bahorida ob–havoning keskin o‘zgarib turishi qattiq yomg‘ir, do‘l yog‘ishi, sel kelishi oqibatida sanoat ishlab chiqarish binolari, aholi turar joylari, qishloq xo‘jaligi, irrigatsiya va melioratsiya tarmoqlariga juda katta miqdorda talofat yetkazildi. Shu munosabat bilan 1979-yil 31-mayda KPSS MK va SSSR Ministrlar Soveti “O‘zbekiston SSRga tabiiy ofat oqibatlarini tugatish borasida yordam berish chora–tadbirlari haqida” 496–sonli qaror qabul qildi. Mazkur hujjat asosida O‘zKP MK va Respublika Ministrlar Sovetining 1979-yil 7-iyuldagi 389–sonli qarorida Xorazm viloyatiga 1 mln 200 ming so‘m ajratilganligi qayd qilindi [8].

Markaz tomonidan ajratilgan mablag‘ni tabiiy ofatdan ayniqsa ko‘p zarar ko‘rgan Cholish posyolkasi va Oktyabrarna kanali Bosh inshooati, “Begovot” davlat xo‘jaligi va boshqa muhim ob’ektlardagi qurilish–montaj ishlariga sarflash rejalashtirildi. Shu jumladan “Xorazmsuvqurilish” jamoasi 936,0 ming so‘mlik va “Xorazmsovxozsuvqurilish” tresti — 264,0 ming, “Tuyamo‘yinqurilish” tresti — 551,4 ming, “Vodspetsdrenaj” KMKsi — 226,7 ming so‘mlik ishlarni bajarishi kerak edi [9]. Amalga oshirilgan keng ko‘lamdagi ishlar tajribasi 1981 yilda yangi tabiiy ofat — Buxoro viloyatidagi Gazli posyolkasi yaqinida ro‘y bergan zilzila oqibatlarini tugatishda katta yordam berdi.

1981–1985 yillarda “Xorazmsuvqurilish” tresti oldiga 23,5 ming ga yerlarni o‘zlashtirish, 30 mingga ekin maydonlarini kapital tekislash, yana shuncha maydonlarning meliorativ holatini yaxshilash, 30 mingga ekin maydonida yopiq drenajlar bunyod etish vazifasi yuklangandi [7]. Ushbu vazifalarni bajarish 1981-yilda sodir bo‘lgan tabiiy ofat sharoitida boshlandi. Shu yili kuchli jala yog‘ishi natijasida xom g‘ishtdan qurilgan ko‘plab imoratlar quladi. Ko‘rilgan katta tabiiy zarar oqibatlarini tugatish muammolarini hal qilish uchun Sh.Rashidov boshchiligida respublika rahbarlari Xorazmga keldilar. Faollar yig‘ilishida qurilishi materiallari yetkazib beradigan g‘isht zavodlarini bunyod etish to‘g‘risida ko‘rsatma berildi.

1982-yilda Xiva KMKsi jamoasi sutkasiga 100 tonna oxak ishlab chiqaradigan sex qurilishini boshlab yubordi. Zavod Xorazm viloyatidagi zarbdor qurilish, deb e’lon qilindi. KMK bunyodkorlari zavod qurilishida fidokorona mehnat qildilar. Shu bilan bir bir qatorda jamoa a‘zolari Urganch–Xiva avtomagistrali yaqinidagi ma‘muriy binolar, g‘isht ishlab chiqarish korxonalari, Xiva shahar mehnatkashlarining yozgi dam olish maskani — “G‘ovuqko‘l” massivini qurib, obod etdilar hamda bir necha yuz ga tashlandiq va sho‘rlangan yerlarni qishloq xo‘jaligi uchun yaroqli holatga keltirdilar.

1983-yil dekabrida Xivaning yo‘ldosh shaharchasi — Qosmobodda silikat gisht zavodi qurilishi boshlab yuborildi. Zavodda yiliga 60 mln dona g‘isht chiqarish quvvati bo‘lib, uni bunyod etish uchun 4 yilda 10 mln so‘mdan ko‘proq qurilish–montaj ishlari bajarildi[7]. Zavod qurilishida Xiva KMKsi, Urganch QMB va Fuqaro sanoati QMB bunyodkorlari faol qatnashdilar.

Xorazm suv qurilish tresti tarkibidagi ilg‘or bo‘linma hisoblangan Toshsoqa KMK jamoasi a‘zolarining 80 foizi brigada pudrati asosida mehnat qilardi. Natijada o‘ninchi besh yillikdagi bosh pudrat ishlari rejadagi 17,7 mln so‘m o‘rniga 20,8 mln so‘mlik qilib, ya‘ni 123 % etib bajarildi [7]

Xorazmda yangi yerlarni o‘zlashtirishda “Xorazmsovxozsuvqurilish” tresti, viloyat Suv xo‘jaligi tizimi boshqarmasi, qurilayotgan korxonalar birlashgan 21 va 22–sonli direktsiyalari jamoalarining ham salmoqli hissalari bor edi. Jumladan, 1974-yilda Gurlan KMK jamoasi a‘zolari “Yangiobod” davlat xo‘jaligi uchun 51,4 ga, “Kommunizm” jamoa xo‘jaligi uchun 34,5 ga yangi yerlarni o‘zlashtirib, berdilar [10]. 1985-yilda Qo‘shko‘pir KMB jamoasi “Amirqum” davlat xo‘jaligi uchun 105 ga, Oltiboy Qurbonov nomli jamoa xo‘jaligi uchun 106 ga yangi yerlarni o‘zlashtirdi [10].

1981–1985 yillar oralig‘ida viloyatda 20,4 ming ga yerlarni o‘zlashtirdi, 16,4 ming ga sug‘oriladigan yerlarni kapital tekisladi. Viloyatdagi 17 ta davlat xo‘jaligida irrigatsiya–melioratsiya ob’ektlari bilan bir qatorda chorvachilik fermalari, uy–joy va boshqa ijtimoiy–madaniy binolarni qurish ishlari olib borildi [11].

Suv qurilish tashkilotlarining sa‘y–harakatlari bilan to‘qqizinchi–o‘n birinchi besh yilliklarda jamoa xo‘jaliklari uchun yangi o‘zlashtirilgan maydonlar va ularga sarflangan mablag‘lar hajmi ortib

bordi. Jumladan, 1971–1975 yillarda 98,4 mln so‘m evaziga 19,1 ming ga, 1976–1980 yillarda esa 178 mln so‘mlik harajatlar evaziga 22,1 ming ga yangi yerlar o‘zlashtirildi. 1971 yilda viloyatdagi xaydab ekiladigan yer maydonlari 131,0 ming ga tashkil qilgan bo‘lsa, 1976-yilda u 138,8 ming ga, 1981-yilda 141,4 ming ga va 1985 yilda 148,6 ming gaga yetdi [12]. Shu davrda asosiy e’tibor paxtachilikka qaratilgan bir vaqtda don va dukkali ekinlarni joylashtirish uchun ajratilgan yer maydonlari 3700, 7168, 11138, 8504 gani tashkil qilardi, xolos [12].

Qurilish materiallari surunkali yetishmasligi va ish ko‘lamining keskin kamayib ketganligi sababli 1989-yil mart oyida “Xorazmsuvqurilish” va “Xorazmsovxozsuvqurilish” trestlari birlashtirildi. Shu bilan bir vaqtda Urganch yig‘ma temir–beton hamda Xiva silikat g‘isht zavodlariga zarur qurilish materiallarini o‘z vaqtida tayyorlash vazifasi topshirildi. XATP–14 tashkiloti rahbarlariga esa markazlashgan transport xizmatini uzluksiz tashkil etish mas’uliyati yuklandi. Belgilangan tadbirlar tez orada o‘z samarasini berdi. 1989-yil yakuniga ko‘ra “Xorazmsovxozsuvqurilish” birlashmasi respublikada eng ilg‘or suv qurilish jamoasi sifatida baholandi.

## XULOSA

Xulosa qilib shuni aytib o‘tish joizki, Xorazm viloyatida suv qurilishi sohasida amalga oshirilgan ulkan ishlar natijasida yangi o‘zlashtirilgan maydonlar va ularga sarflangan mablag‘lar hajmi ortib bordi. Viloyatda minglagan ga yerlar o‘zlashtirildi, sug‘oriladigan yerlar kapital tekislandi, bir qancha davlat xo‘jaligida irrigatsiya–melioratsiya ob’ektlari bilan bir qatorda chorvachilik fermalari, uy–joy va boshqa ijtimoiy–madaniy binolarni qurish ishlari olib borildi.

### ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. G‘ulomov Ya.G‘. Xorazmning sug‘orilish tarixi: qadimgi zamonlardan hozirgacha. — Toshkent: O‘zFAN, 1959. – B. 7. (Ghulomov Ya.G. The history of Khorezm irrigation: from ancient times to the present. - Tashkent: UzFAN, 1959. - P. 7.)

2.Mamedov A.M. Razvitie irrigatsii v Uzbekistane. — Tashkent: Fan, 1967. – 299 s. (Mamedov A.M. Development of irrigation in Uzbekistan. — Tashkent: Science, 1967. – 299 p)

3.Irrigatsiya Uzbekistana. 3 tom: “Sovremennoe sostoyanie i perspektivы razvitiya irrigatsii v basseyne reki Amudar’i”. — Tashkent: Fan, 1979. – 238 s. (Irrigation to Uzbekistan. Volume 3: "Current status and prospective development of irrigation and basin of Amudari river". — Tashkent: Science, 1979. – 238 p.)

4. Abdulhamidov, A. Istoriya vodoobespecheniya nizovev Zarafshana (1940–1946 gg.): Avtoref. diss. … kand. ist. nauk. — Tashkent, 1966. (Abdulhamidov, A. Istoriya vodoobespecheniya nizovev Zarafshana (1940–1946): Abstract of the diss.can.of sciences in history — Tashkent, 1966)

5.XorVDA, 636–jamg‘arma, 1–ro‘yxat, 25–ish, 71–varaq. (KhorRSA, fund 636, list 1, case 25, page 71)

6.Nurjonov K., Nodirov I. Xorazm farzandi. — Urganch: Xorazm, 1992. – B. 6–7, 16. (Nurjonov K., Nodirov I. Khorezm's child. - Urganch: Khorezm, 1992. - P. 6-7, 16).

7. Xudoyberganov Y. Amu jilolari. – B. 19-23, 56. (Khudoyberganov Y. Amu glosses. - P. 19-23, 56)

8. XorVDA, 22–jamg‘arma, 1–ro‘yxat, 3–ish, 1, 9–varaqlar. (KhorRSA, fund 22, list 1, work 3, sheets 1, 9.)

9. XorVDA, 22–jamg‘arma, 1–ro‘yxat, 3–ish, 9, 16, 17–varaqlar.(KhorRSA, fund 22, list 1, work 3, sheets 9, 16, 17)

10. XorVDA, 221–jamg‘arma, 1–ro‘yxat, 46–ish, 2,4–varaqlar. ;6, 13, 16, 19–varaqlar.( KhorRSA, fund 221, list 1, case 46, sheets 2,4. 6, 13, 16, 19 pages)

11. XorVDA, 1–jamg‘arma, 1–ro‘yxat, 68–ish, 188–varaq. (KhorRSA, collection 1, list 1, case 68, page 188)

12. Osnovnie pokazateli raboti kolxozov Uzbekskoy SSR za 1971–1985 gg. — Tashkent: Gosagraprom UzSSR, 1987. – S. 11-15. (The main indicators of the work of the collective farms of the Uzbek SSR for 1971-1985. — Tashkent: Gosagroprom UzSSR, 1987. – P. 11-15)